

DAVLAT BYUDJETNING BEVOSITA SOLIQLARDAN DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Mingturayev Abdusalom Abdumalik o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 19.08.2025

Revised: 20.08.2025

Accepted: 21.08.2025

KALIT SO'ZLAR:

*byudjet, davlat
moliyasi, davlat byudjeti,
soliq, solikli daromad,
bevosita soliqlar,
bilvosita soliqlar.*

Maqolada iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida soliq mexanizmlarining davlat dastaklaridagi muhim o'rni va ular orqali iqtisodiy siyosatni tartibga solish vazifasi muhokama qilinadi. Soliq tizimi tarixi qadimiy davrlarga borib taqaladi: ilk soliq qonunlari Hammurapi qonunlarida va qadimgi davlatlarda, jumladan, Markaziy Osiyoda, qadimgi Gretsiya, Rim va Vizantiyada shakllangan. Soliqlarning jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda o'zgarishi va rivojlanishi, davlat byudjetining asosiy manbai sifatida ahamiyati ta'kidlanadi. Shu bilan birga, samarali soliq siyosatini amalga oshirish uchun soliq to'lovchilarning imkoniyatlari va soliq yukining miqdori o'rtasida muvozanatni ta'minlash zarurligi qayd etiladi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida soliq mexanizmlari davlat dastaklari ichida birinchi darajali ahamiyat kasb etadi va boshqaruvning turli darajalarida iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda tartibga soluvchi vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Soliqlar asrlar davomida o'zgarib, jamiyat taraqqiyoti asosida takomillashib kelgan. Soliqlar va soliqqa tortish to'g'risidagi ilmiy g'oyalar, konsepsiyalar va ta'limotlar majmui soliq nazariyasini anglatib, har bir mamlakatda muayyan davr uchun o'ziga xos nazariy qarashlar paydo bo'lgan va shu asosida soliqqa tortish mexanizmlari shakllangan. Ma'lumki, soliqqa tortish munosabatlari davlat, uning vazifasi hamda faoliyati amaliy jarayonining ibtidosini tashkil etadi. Chunki,

har qanday ustqurma muayyan iqtisodiy bazisdan oziqlanadi. Mazkur ta'kiddan kelib chiqib, ana shu bazisning ratsional asosini shakllantiruvchi soliq hamda uning tizimini jamiyat tarixiy taraqqiyotida tutgan o'rnini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, o'ziga xos dastak ekanligini anglaymiz. Chunki, har qanday jamiyat o'zining xususiyati va tabiatiga ko'ra, bu jarayonga hamohangdir. G'oyat mas'uliyatli, o'z navbatida o'ta yuqori darajadagi ehtiyojni o'zida ifodalagan soliqqa tortish mexanizmlari o'ziga xos o'zgarish hamda islohotlarga uchragani bilan jamiyat taraqqiyoti natijasida uning yangi qirralari va imkoniyatlari shakllanmoqda.

Soliqqa tortish mexanizmlarini jamiyat rivojlanishining ajralmas moliyaviy siyosati sifatida shakllanishining dialektik nuqtai nazardan nazariy asoslagan ingliz iqtisodchisi S.Parkinson fikricha, "soliqqa tortish dunyo kabi qadimiy bo'lib, uning boshlang'ich shakllari mahalliy qabila boshliqlarining daryo boshlarini, ikki daryoning kesishgan yoki tog'dan o'tish joylarini to'sib, undan foydalanganlik yoki savdogar va sayyohlardan ushbu yerdan o'tganlik uchun to'lovlar undirgan davrlarda paydo bo'lib" (Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. O'zbek tiliga tarj. qilg. M.Adilov. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2005. – 3 b.), natijada soliqqa tortish vujudga kelgan.

Bizga ma'lum bo'lgan ilk bor soliqqa oid qonunlar eramizdan avvalgi XVIII asrning 60-yillariga to'g'ri keladi. Bu qonunlar eramizdan avvalgi 1792-1750 yillarda Vavilon podshohi Xammurapi tomonidan qora bazalt toshga yozib qoldirilgan. Ushbu qonunlar aniq tizimlashtirilgan 282 moddani tashkil etib, xususan, javobgarchilikka, mulkchilikka va soliqlarga tegishli bo'lgan. Erkin yer egalari va hunarmandlar podshohga soliqlarni pul yoki natura shaklida majburiy to'lashganlar. Soliqqa tortish ob'ekti bo'lib yer, ko'chmas va boshqa mulk, hamda chorva mollari hisoblangan. Soliq yig'uvchilar podshoh xizmatkorlari hisoblanishgan. Soliq miqdori daromad va mulkning o'ndan bir qismini tashkil etgan (Chernik D.G. i dr. Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnik. – 3 izd., pererab. i dop. – M.: MSFER, 2006. – s. 3.).

Ta'kidlash joizki, Xammurapi qonunlaridagi ba'zi bir elementlar, soliqlarni davlat xazinasiga undirilishi va mahalliy yig'implarga bo'linishi hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Markaziy Osiyo hududida eramizdan avvalgi 1000 yillarda qabilalarning birlashuvi tufayli davlatchilik paydo bo'lgan va Baqtriya, So'g'd, Xorazm sinfiy jamiyatlari davlatning dastlabki ko'rinishi sifatida vujudga kelgan. Mazkur sinfiy jamiyatlarning paydo bo'lishi dastlabki iqtisodiy munosabatlarning shakllanishiga hamda o'zgarishiga sabab bo'lgan. Chunki, davlat u qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar, boshqarishni va boshqarish

esa, mablag'ni talab qiladi va ushbu zaruriyatdan kelib chiqib dastlabki soliqlar paydo bo'lgan. Soliq turlari pul va natura tarzida jon boshiga va yer maydoniga solinadigan soliq sifatida paydo bo'lib, fuqarolardan olingan (Shaulov D.I. va boshq. Soliq qonunchiligi asoslari: O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000. – 15 b.). Bu o'z navbatida, davlat byudjetining dastlabki manbalarini tashkil etgan.

Davlatchilikning ilk elementlari shakllangan qadimgi Gresiyada (eramizdan avvalgi IV -I asrlar) soliqlar, asosan daromadlardan olingan. Aholi daromadining o'ndan biri, ayrim tabaqalar uchun yigirmadan bir qismi davlatga to'langan. Bu davrda soliqlar erkin hech qanday ma'muriy choralarga mustahid etilmagan, agar fuqaro daromad qilmagan taqdirda majburiy soliqqa tortilmagan, ammo ular o'z xohishlariga ko'ra imkoniyatlaridan kelib chiqib, davlatga in'omlar qilganlar. Bu hol mazkur jamiyatdagi fuqarolarning tub manfaatlarini ongli ravishda idrok eta olganliklarini ko'rsatadi. Xalq yig'ini yoki shahar kengashi bo'lg'usi yirik xarajatlar oldidan daromadlarning foiz ajratmalarini, ya'ni soliqlarini belgilagan.

Qadimgi Rimda (eramizdan avvalgi IV-I asrlar) soliq tushumlarining asosiysi davlat soliqlari hisoblanib, fuqarolar umumiy daromadlaridan soliq to'laganlar. Rim fuqarolari uchun mol-mulk hamda amaldagi daromadlari bo'yicha, ixtiyoriy ravishda soliq ko'rsatkichlaridan kelib chiqadigan to'lovning hajmi belgilangan, ya'ni "senz" soliq me'yori aniqlangan. Rimga qaram bo'lgan davlatlar yoki saltanatning chekka viloyatlari mahalliy soliqlardan tashqari alohida markaz uchun ham soliq to'lashgan. Ma'lumki, Rim imperialistik munosabatlarni shakllantirishga va rivojlantirishga asos solgan davlatlarning dastlabkilaridan hisoblanib, u yakka hokimlik munosabatlarining paydo bo'lishiga zamin yaratgan. Shundan kelib chiqib, imperiyaning ijtimoiy-siyosiy holatiga ko'ra, beqaror soliqlar belgilangan. Masalan, ma'lum imperialistik harakatlarda muvaffaqiyatga erishilsa, soliqlar davlat miqyosida kamaytirilgan, aksincha holatlarda esa oshirilgan (Mirzaev T. va boshq. Soliqlar va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – T.: Mehnat, 2003. – 6 b.).

Qadimgi Vizantiyada (VII asrga qadar) 21 turdagi soliqlar (er solig'i, jon boshiga olinadigan soliq, davlat armiyasi uchun soliqlar, tovar savdosidan olinadigan soliqlar va hokazo) amal qilgan. Soliqlarning ortib ketishi, me'yoriy tamoyillarning buzilishi mamlakatni inqirozga yuz tutishiga olib kelib, yaxlit qudratli davlatning parchalanib ketishiga sabab bo'lgan. Demak, soliq tarixidan ma'lumki, samarali soliq-byudjet munosabatlarini tashkil etishda, soliq sub'ektlarining to'lovchanlik qobiliyatlarini ilmiy asoslangan holda aniqlash va soliq yukini maqbul darajada tashkil qilish kerakki, bu oxir oqibatida ikki tomonlama manfaatlarini (soliq to'lovchilar va soliq bazasi kengayishini

hamda davlat byudjeti daromadlari oshishini) ta'minlashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yefimova O.V. Finansoviy analiz: sovremenniy instrumentariy dlya prinyatiya ekonomicheskix resheniy. /usheb. / O.V. Yefimova. - 5-ye izd., ispr. - M.: Omega-L, 2014. - 348s.
2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. /usheb i praktikum / N.A. Kazakova. - M.: Yurayt, 2014. - 539 s.
3. Brealey R.A., Mers S.S. Principles of corporate finance. McGraw-Hill, 2003.
4. Kumri Nomozova. Organizational and economic modeling of the system of interregional industrial cooperation as a control object. Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.
5. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of security of economic and ecological systems in the countries of the central Asian Region. International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.
6. Kumri Nomozova. Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsya ushenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogicheskie texnologii. 2025. – s. 581-587.
7. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq risklarni sug'urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.
8. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomicheskoe razvitiye i analiz, 2024. - s. 338-345.
9. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug'urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.
10. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.
11. Qumri Nomozova. O'zbekistonda tadbirkorlik tavakkalshiliklari sug'urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.
12. B.E.Toshmurodova Korporativ moliya strategiyasi– T.: "Iqtisod- moliya", 2013. – 128 b.
13. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliy. Darslik. – T.: "Sharq", 2010. – 804 b.
14. Van Xorn D.K. Osnovi upravleniya finansami/ D.K.Van Xorn; Per.s angl.; Gl. red. serii Y.V.Sokolov. -M: Finansi i statistika, 1996. - 800 s: il.
15. Public Finance: A Contemporary Application of Theory to Policy, Tenth Edition. David N. Hyman. 2010, 2011 South-Western, Sengage Learning
16. Malikov T., Jalilov P. Byudjet-soliq siyosati. – T.: "Akademyashr", 2011. – 472 b.